

TARIX DARSLARINI TASHKIL QILISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Mavlonov Farruxjon Faxriddin o‘g‘li
Navoiy viloyati Tomdi tumani 1-IDUM
Tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yashayotganimizga qaramasdan, avvalambor tarixni bilish - bu hayotiy zaruratdir. Mazkur maqolada ta’limda tarix darslarini zamon talabi asosida baholashning samarali usullari haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, mustaqil fikr, interfaol metod, yangicha yondashuv, tarixiy tafakkur.

Kirish:

Ma'lumki, tarixni o‘rganmasdan turib kelajakni anglab bo‘lmaydi. Tarix inson aql-idroki va tafakkurining shunday bir nodir va mo‘jizakor mahsuli, inson tarixdan ta’lim-tarbiya oladi, tarix katta saboq beradi. Vatanimiz O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta’minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, yoshlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ta’limning bugungi kundagi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga albatta dars jarayonlarida turli pedagogik texnologiyalar yordamida mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Innovatsion ta’lim texnologiyalarini pedagogik amaliyotga tatbiq etish uchun o‘qituvchiga quyidagi komponentlar-bilim, ko‘nikma va malakalar zarur bo‘ladi:

- O‘z fanining asoslarini chuqur egallagan, ilmiy salohiyat va ma’naviy barkamollikka ega bo‘lishi;
- O‘z fanining ilg‘or targ‘ibotchisi, fidoyisi bo‘lishi;
- Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish, o‘zlari ham yangicha o‘qitish uslublarini ishlab chiqishi;
- O‘quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish;

- Internet tarmog‘i to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi va undan o‘z bilimini oshirishda foydalana olishi;
- Innovatsion ta‘lim texnologiyalarining turlari, qoidalari va tamoyillari haqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- O‘quvchilarning faolligini o‘stirish, ularning mustaqil ta‘lim olish jarayonlarini o‘rganish, o‘qitish jarayonini mazmunli, qiziqarli, ijodiy, samarali bo‘lishi uchun ta‘limning interfaol metodlarini qo‘llay bilish;
- O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va ularning monitoringini olib borish.

Natijalar:

Zamon talablariga hamohang bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajalariga qarab vazifalarni belgilashi lozim. Sababi darslardagi bir xillik, faqat kitobdagi ma‘lumotlar bilan cheklanib qolish bugungi kun intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan yoshlarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini susaytirishi mumkin. Bugungi kun o‘qituvchisi pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollansagina o‘quv-tarbiya jarayonini qiziqarli tashkil eta oladi. O‘qituvchi o‘zi o‘qitayotgan o‘quvchilarning bilim salohiyatiga mos ravishda vazifalarni belgilashi lozim. Shunday ekan men ham tarix darslarida o‘z tajribamda qo‘llanilgan va yuqori samara bergan interfaol usullar haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Tarix darslari samaradorligini oshiruvchi usullardan biri ko‘rgazmali vositalar yordamida darsda muammoli vaziyatni vujudga keltirish bo‘lib hisoblanadi. Zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Buning uchun pedagogdan yuksak mahorat va ta‘lim jarayonida yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kundagi ta‘lim jarayoni ta‘limni interfaol metodlar asosida olib borishni talab etmoqda. Xususan, tarix fanini o‘qitishda olib boriladigan mashg‘ulotlarda ham interfaol metodlardan foydalanish mumkin.

Muhokama:

O‘quvchilarga tarix darslarida ularning tarixiy bilimlarga bo‘lgan tafakkur tushunchalarini o‘stirishda yakka tushunchalarni umumlashtirib, xulosalar chiqarishda mazkur ta‘lim usullaridan keng va o‘rinli foydalanish ularning tafakkurini shakllantirishda juda yaxshi samara beradi. Chunki, tarixiy ma‘lumotlarni taqqoslab o‘rganish ularni mantiqiy fikrlash, tarixiy voqealarning mohiyatini tushunish, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining sabablarini aniqlash ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish hamda ularning tarixiy tafakkurlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashtirib borishi dars berish jarayonida qo‘llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarning turli yo‘nalish va maqsadlarda qo‘llanilayotganligiga bog‘liq.

Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilimi, tajribasi, kasbiy tayyorgarligiga bog‘liqdir. Yoshlarni hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari, o‘z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta‘minlash doimo davlatimiz va jamiyatimiz diqqat e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Uzluksiz ta‘lim tizimida davom etayotgan islohotlarning eng muhim bosqichi tarix fani o‘qituvchisi oldiga shunday mas‘uliyat qo‘ydiki, bu o‘qituvchi faoliyatining o‘quv-biluv tuzilmasini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdan iborat.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘quvchi yoshlarni avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun dars jarayonida butun rahbarlikni o‘z qo‘liga olib, mavzu mohiyatini to‘liq tushuntirgan o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilariga ishlash uchun sharoit va erkinlik yaratishga erishgan, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatgan o‘qituvchigina chin ma‘nodagi pedagog va tarbiyachidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. –T.: TDPU, 2004.
2. I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch” -Ma‘naviyat:2008-yil
3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev “Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”-T.:2017-yil
4. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova “O‘zbekiston tarixi”-T.:2006-yil